


«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori v.v.b, professor  
Sh.A.Boymuradov  
29-iyun 2022 yil



Toshkent tibbiyot akademiyasi

Ilmiy kengashining

11-sonli BAYONI

Toshkent shahar

29 - iyun 2022 yil

**Raislik qiluvchi, v.v.b.:**  
Sh.A.Boymurodov

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
o'quv ishlari prorektori,  
professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a'zolari  
(ro'yxat bo'yicha)

### KUN TARTIBI

1. Bitiruvchilarning Yakuniy Davlat Attestatsiyasi natijalari.

**Ma'ruzachi** – Yakuniy Davlat Attestatsiyasi (YADA) hay'ati raislari.

2. Akademiya Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati.

**Ma'ruzachi** – Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Aliyev Shavkat Rofievich.

3. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda Akademiya) fakultet va kafedralarining ilmiy, o'quv va o'quv-uslubiy ishlari bo'yicha monitoring natijalari.

**Ma'ruzachi** – Akademiya rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich.

4. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma'ruzachi** – Komissiya raisi.

5. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi** – Kengash kotibi Ismailova Guli Amindjanovna.

6. Turli masalalar.

**Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.**

## QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi – “Bitiruvchilarning Yakuniy Davlat Attestatsiyasi natijalari” - mavzusidagi, Yakuniy Davlat Attestatsiyasi (YADA) hay’ati raisi – Xodjimetov Abdug‘affor Axatovichning ma’lumotlari qoniqarli deb xisoblansin va axborot uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyada umumiy amaliyot shifokorlarini/oilaviy shifokorlarni (UASh/OSh) mutaxassislik bo‘yicha yetarli darajada bilim va yuqori saviyada amaliyot uchun tayyorlashda o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan simulyatsion markazda, klinik bazalarda navbatchilik vaqtida amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlariga, mustaqil bajarishlariga va ularni amaliyotda qo‘llashlariga alohida e’tibor qaratilishi ta’minlansin.

**Mas’ul – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.2. Akademiyada UASh/OSh larni yuqori malakali mutaxassis etib tayyorlash maqsadida pastki kurslardan boshlab ularni amaliyotga yo‘naltirilishi, jumladan, OSKI natijalariga asoslanib, talabalarga 2-3 kurslardan boshlab anamnez yig‘ish va ob’ektiv ko‘rikni o‘tkazilishi, yig‘ilgan ma’lumotlar asosida tashhis qo‘yish bo‘yicha talablarni kuchaytirilishi va 4-5 kurslarda bu ko‘nikmalarni mustahkamlab borilishi va bu jarayonlarni bajarilishini kafedra mudirlari, dekanatlar va o‘quv-uslubiy boshqarma tomonlaridan doimiy monitoringini olib borilishi yo‘lga qo‘yilsin.

**Mas’ul – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.3. YaDAda jarayonida inson omilini kamaytirilishi va imtihonda ob’ektivlik holatini oshirilishi maqsadida “virtual bemor” dasturidan keng foydalanilmoqlik, amaliy ko‘nikmalarni simulyatorlar yordamida olinishi va chek listlardan foydalanish jarayonlari yo‘lga qo‘yilishi ta’minlansin.

**Mas’ul – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.4. YaDA jarayoniga tayyorlanish davrida barcha mutaxassisliklar bo‘yicha UASh/OSh kvalifikatsion tavsifnomasiga binoan ta’luqli testlarni yaratilishiga va mavjud testlar bazasini yangilanishiga alohida e’tibor qaratilsin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022-2023 o'quv yili davomida.**

1.5. Tibbiy – profilaktika yo'nalishidagi bitiruvchilarni amaliyot uchun tayyorlashda barcha bosqichlarda mutaxassislik kafedralari Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik (SEO) va jamoat salomatligi xizmati (JSX) markazlardagi zamonaviy asbob-uskunalardan amaliy mashg'ulotlarda, ob'ektiv strukturalashgan imtihon (OSI) sinovlarida ulardan unumli foydalanishlari ta'kidlab o'tilsin, shuningdek, o'qitish hamda o'rgatish jarayonlarida ilmiy darajaga ega mutaxassislarni jalb etilishi yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022-2023 o'quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi – “Akademiya Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati” – mavzusidagi, – Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Aliyev Shavkat Rofievichning ma'lumotlari axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiyaning bo'lim va kafedralari tomonidan isbotlangan haqiqiy ma'lumotlarni taqdim etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh. R.Aliyev, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.2. Chop etiladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va monografiyalar soni va sifatini oshirish bo'yicha ishlar kuchaytirilsin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.3. Xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etiladigan maqolalar sonini oshirilishi va talab darajasida taqdim etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.4. Har bir kafedra yangi o'quv yili rejasiga va har bir xodim shaxsiy ish rejasiga akademiya reytingini ko'tarishga qaratilgan tadbirlarni kiritishi va sifatli bajaruvini amalga oshirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.5. Fakultet ilmiy kengashi kotiblari tomonidan Ilmiy Kengash qarorlarining monitoringi muntazam olib borilishi va ularining ijrosi to'liq yoritilishi ta'minlansin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat – 2022/2023 o'quv yili davomida.**

3. Kun tartibining uchinchi masalasi – “Akademiya fakultet va kafedralarining ilmiy, o'quv va o'quv-uslubiy ishlari bo'yicha yillik monitoring natijalari” - mavzusida O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradovning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Kun tartibining to'rtinchi masalasi “Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo'yicha Akademiya kengashi kotibi G.A.Ismailova ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi. Dotsent ilmiy unvoniga talabgor “14.00.36 – Allergologiya va immunologiya” ixtisosligi bo'yicha “Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi” kafedrasida dotsenti tibbiyot fanlari doktori F.X.Irsaliyevaning hujjatlari bilan tanishtirdi, so'ng saylov o'tkazildi (ilova 1).

5. Kun tartibining beshinchi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo'yicha kengash kotibi G.A.Ismailova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy va o'quv mahsulotlar bilan tanishtirdi. (2- va 3 - ilovalarda keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

6. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A.Bobomuratov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova so'zga chiqdilar.

6.1. Akademiyaning Nevrologiya kafedrasida tomonidan taqdim etilayotgan “Umumiy va regionar ateroskleroz, qon aylanish kasalliklari (bosh miya qon aylanishining ytkir buzilishi, postkovid nevrologik asoratlar, Covid-19 assotsiirlashgan insult) zamonaviy muammolari, yosh va jins dimorfizmi, ateromatoz, aterokalsinoz pilakchalarining organik- hamda noorganik biokim'yoviy tarkibi, fizik xususiyatlari, antiateromatoz kim'yoviy va ysimlik vositalari” (Loyiha rahbari prof. **Assadullayev** Maksud Maxmudovich) nomli ilmiy loyiha Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etishga **tavsiya etilsin.**

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022 – yil 23- maydagi 32-22/2816- son xatiga javoban, 1-son akusherlik va ginekologiya kafedraasi assistenti **Muftaydinova** Shaxnoza Kiyomiddinovna Moskva shahriga “Operativ ginekologiyada laparoskopiya va gisteroskopiya” bo‘yicha qisqa muddatli stajirovkaga yuborish uchun nomzod sifatida tavsiya etilsin.

6.3. 2022-2023 o‘quv yili uchun tegishli o‘quv rejalari asosida quyidagi ta’lim yo‘nalishlarning ishchi o‘quv rejalari, ishchi o‘quv dasturlari, malakaviy amaliyot bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlar tasdiqlansin: davolash ishi – 2-6 kurs, professional ta’lim – 3-6 kurs, tibbiy profilaktika ishi – 2-5 kurs, tibbiy biologiya ishi – 2-4 kurs, xalq tabobati – 2-3 kurs, biotibbiyot muxandisligi – 2 kurs, menejment: Sog‘liqni saqlash menejmenti – 2 kurs; – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-sonli buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan va 2022-2023 o‘quv yilining 1-kursidan bosqichma-bosqich tatbiq etilishi rejalashtirilgan kredit-modul tizimiga asoslangan o‘quv rejalari **tasdiqlansin**;

- Yangi ishlab chiqilgan o‘quv rejalari O‘zbek tili, Rus tili, Tibbiyotda xorijiy til, Tibbiyot tarixi, Jismoniy tarbiya va sport, Hayot faoliyati xavfsizligi, Fuqaro muhofazasi kabi fanlarning majburiy fanlar blokidan tanlov fanlari blokiga o‘tkazilishi munosabati bilan ushbu fanlarda dars beruvchi pedagoglar 2022-2023 o‘quv yilida tegishli kafedralarda shtat birliklari qisqarishi mumkinligi haqida **ogohlantirilsinlar**.

- Akademiyada yangi Pediatriya, Stomatologiya va Farmatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha davlat kvotasida belgilab berilganligi ta’kidlab o‘tilsin, ushbu yo‘nalishlarning malaka talablari, o‘quv rejalari ishlab chiqilsin va tegishli tayanch OTMLar bilan kelishilib o‘rnatilgan tartibda qisqa muddatda tasdiqlansin.

**Mas’ul – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova.**

**Muddat – 2022 yili 10 iyulga qadar.**

6.4. Akademiyaning 2021-yil 9-avgustdagi Rektorat yig‘ilishining 1-sonli bayonnomasida hamda 2021-yil 27-avgustdagi Ilmiy kengashning 1-sonli bayonnomasida barcha bo‘lim, kafedra tarkibidagi har bir xodim kesimida berilgan ilmiy va o‘quv yuklamalar bo‘yicha berilgan topshiriqlar yuzasidan monitoring natijalari taqdim etilsin va yangi 2022 – 2023 o‘quv yilida mahalliy va xorijiy reyting talablarini inobatga olgan holda ilmiy, o‘quv, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa yo‘nalishlar kesimida vazifalar aniq ko‘rsatilib “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilsin hamda ijrosi bo‘yicha avgust oyida bo‘lib o‘tadigan Ilmiy kengashga qadar taqdim qilinsin.

**Mas’ul – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A.Bobomuratov, Davolash**

ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor J.K.Haqberdiyev, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xodimlar bo'limi boshlig'i N.A.Ismatullaeva, barcha bo'lim va boshqarma boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

**Muddat – 2022 yili avgust.**

6.5. Akademiyaning 2022-yil 25 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzodlar tanlovini o'tkazish to'g'risida"gi 215 - sonli buyrug'iga muvofiq o'tkazilgan magistratura bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda bakalavriyat bosqichi talabalari uchun nomli davlat stipendiyalariga nomzodlarni tanlash bo'yicha dastlabki oliy ta'lim muassasasi bosqichi tanlovi natijalari bo'yicha quyidagi talabalarning nomzodlari tasdiqlansin va tavsiya etilsin:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga Magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar: Maxkamova Munisa Majidovna-Kardiologiya mutaxassisligi bo'yicha 2-kurs magistr talabasi, Mirxoshimov Mirbobir Botir o'g'li - Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha 2-kurs magistr talabasi;

– bakalavriyat bosqichi talabalari uchun davlat (Ibn Sino, Islom Karimov) nomli stipendiyalariga talabalar: Yunusova Mavzoda Rustamovna – 1-son davolash fakulteti 4-kurs talabasi, Islomov Rasulxo'ja Ilxom o'g'li - 1-son davolash fakulteti 4-kurs talabasi, Misirova Shirina Azizovna – 1-son davolash fakulteti 4-kurs talabasi, Tursunbaeva Diyora Baxtiyarovna – 1-son davolash fakulteti 5-kurs talabasi, Dadayeva Nigina Baxtiyarovna – 2-son davolash fakulteti 4-kurs talabasi.

6.6. 2022-yilda xalqaro va respublika miqyosida Akademiyaning iqtidorli talabalari tomonidan erishgan ilmiy yutuqlar bo'yicha hisobotiga ko'ra, xalqaro fan olimpiadalarda va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda faxrli o'rinlarni egallagan 1-ildovada nomlari ko'rsatilgan 94 nafar talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Akademiyaning talablarni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 1 (bir) million so'mdan bir martalik rag'batlantirilsin. **Eslatma:** Ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan mezonlar bo'yicha Akademiyaning odob-axloq qoidalarini buzgan va akademiya mavqeyiga putur yetkazgan talabalar rag'batlantirilmaydi.

6.7. Akademiyaning faoliyatida samarali hissa qo'shib kelayotgan hamda turli ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarida yuqori natijalarga erishgan quyidagi talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga

stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq 2 000 000 (to'rt million) so'mdan bir martalik rag'batlantirilsin:

– muassasada ishlab kelib, o'zining samarali mehnati bilan boshqa talabalarga o'rnak ko'rsatayotgan hamda Akademiya salohiyatini oshirishga hissa ko'shib kelayotganligi uchun 1-son davolash fakulteti 5-kurs talabasi, Abdullaeva Zuxra, 1-son davolash fakulteti 3-kurs talabasi Abudqaxxorov Aziz, 2-son davolash fakulteti 4-kurs talabasi To'rayev Isomiddin, Tibbiyo pedagogika va xalq tabobati fakulteti 4-kurs talabasi O'ktamova Dinara hamda Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti 1-kurs talabasi Makhmudjonov Mirazizbek;

– Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yinlarida "Tafakkur" jamoasi 3-o'rinni egallab respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgani uchun: - Jamoa sardori: Boboev Jaxongir Mirsodiq o'g'li-1-son davolash fakulteti 4 kurs talabasi, Jamoa: Xayrullayev Bunyodbek - 1-son davolash fakulteti 3 kurs talabasi, Xamrayev Bunyodbek - 2-kurs magistranti, Ashurov Abdurasul - 1-son davolash fakulteti 3-kurs talabasi, Bosimov Axrorbek -1-son davolash fakulteti 3 kurs talabasi,

– "Yoshlar oyligi" munosabati bilan Toshkent shahar Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida bo'lib o'tgan mini futbol bo'yicha "Olmazor tumani hokimi kubogi" musobaqalarida 3-o'rinni egallab bronza medal sohibi bo'lgan jamoa sardori: Normurodov Jahongir Mavlon o'g'li -1-son davolash fakulteti 1 kurs talabasi, jamoa a'zolari: Rustamov Azamat Arslon o'g'li –Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi; Gofurjonov Xojiakbar Komiljon o'g'li–Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Suyunboyev Diyor Sherbek o'g'li–Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Sag'dullayev Nurbek Ulug'bek o'g'li - –Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Nishonov Akmal G'opirjon o'g'li–Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Malikov Nurbek Erkinjon o'g'li –Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Mamaziyoyev Xurshidjon Erkin o'g'li –Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Hayotjonov Nodirbek Ulug'bek o'g'li–Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Umurzakov Xumoyun Ilhomjon o'g'li –Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Baratov Laziz Zuhridin o'g'li – Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1 kurs talabasi, Po'latov Asadbek Ulug'bekovich - 1-son davolash fakulteti 1 kurs talabasi;

– “Yoshlar oyligi” munosabati bilan Toshkent shahar Oliy ta’lim muassaslari o’rtasida bo’lib o’tgan tosh ko’tarish bo’yicha “Olmazor tumani hokimi kubogi” musobaqalarida 2-o’rinni egallagan 2-son davolash fakulteti 2-kurs talabasi Ismoilov Bobur;

– 2022-yil 29-may kuni Xalqaro miqyosidagi “Zamin Ultra” marafonda dunyoning 20 ga yaqin davlatdan 1200 nafar ishtirokchilardan kuchli beshtaliklar safidan o’rin olib marraga 4 chi bo’lib yetib kelganligi hamda “Chimgan sadosi Kubogi” marafonda 1-o’rinni qo’lga kiritgan magistratura bo’limi 1-kurs talabasi Hamraev Farrux.

**Eslatma:** Ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan mezonlar bo’yicha Akademiyaning odob-axloq qoidalarini buzgan va Akademiya mavqeyiga putur yetkazgan talabalar rag’batlantirilmaydi.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi. Ilmiy Kengash o’z ishini yakunladi.**

**Oliy ta’lim muassasasi  
kengash kotibi**



**G.A. Ismailova**